Xalq deputatlari Romitan tumani Kengashi
Q A R O R I

2023 - yil 7 - noyabr VI-88-203-2-40-K/23 Romitan tuman hokimligi

Romitan tumani mahalliy byutjet 2023-yil uchunchi chorak qo‘shimcha manbalar hisobidan ajratilgan mablag'lar to'g'risida taklif

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 yil 8 apreldagi KQ-331-IV-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman mahalliy byutjet 2023-yil ikkinchi chorak qo‘shimcha manbalar hisobidan ajratilgan mablag'larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarni ko‘rib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILDI:

1. Romitan tumani mahalliy byutjet 2023-yil uchunchi chorak qo‘shimcha manbalar hisobidan ajratilgan mablag'lar to'g'risidagi tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri U.Jumayevning taklifi ma’qullansin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (U.Jumayev)ga:

- O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi talablari asosida tuman mahalliy budjetining parametrlariga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish, belgilangan tartibda xarajatlar smetalari va shtatlar jadvallarini ro‘yxatdan o‘tkazish;

- mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirni o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun tuman hokimi farmoyishlari loyihalarini belgilangan muddatda tayyorlash;

- ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi yuzasidan tizimli monitoring yuritish hamda iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga to‘liq qaytarish bo‘yicha tegishli o‘zgartirishlar kiritishga ruxsat etilsin.

3. Tuman g‘aznachilik bo‘linmasiga:

- ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (O.Ismatov)ga topshirilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman Kengashi raisi **Barnoyev U. I.**

Xalq deputatlari Romitan tuman Kengashining
2023-yil 7-noyabrdagi
VI-88-203-2-40-K/23-son qaroriga
1-ilova

Mahalliy byutjet 2023-yil uchinchi chorak uchun hisobidan ajratilgan mablag'lar to'g'risida taklif

№	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag' miqdori	Mablag' oluvchining nomi
1	"Jamoatchilik tashabbusi" jamg‘armasining tegishli hisob raqamiga mablag‘ o‘tkazib berish	575,0	Romitan tuman hokimligi
2	“Ayollar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga	375,0	Romitan tuman hokimligi
3	“Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga	288,0	Romitan tuman hokimligi
4	"Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash" jamg‘armasiga o‘tkazib berish choralari ko‘rish	15,0	Romitan tuman hokimligi
5	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi PF-46-sonli Farmoniga asosan Daraxt zararkunanda qarshi kurash jamg‘armasiga	38,0	Romitan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
6	Romitan tuman Bolalarni sog‘lomlashtirishga ko‘maklashish jamg‘armasiga, oromgohlarni tayyorlash	192,0	Romitan tuman hokimligi
7	Tuman hokimligi apparat xodimlarini iqtisodiy tomondan qo'llab -quvvatlash maqsadida oziq-ovqat to'lovlari uchun	47,9	Romitan tuman hokimligi
8	Tuman xokimligining tashkiliy-nazorat gurux raxbari	21,0	Romitan tuman hokimligi
9	Yashil makon dasturi doirasidagi xarajatlar uchun	70,0	Romitan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
10	Tumandagi “Madaniyat istirohat bog‘i”ni rekonstruksiya qilish uchun	100,0	Romitan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
11	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati xodimlarni iqtisodiy tomondan qo'llab -quvvatlash maqsadida oziq-ovqat to'lovlari uchun	4,90	Romitan tuman hokimligi
12	Ijtimoiy kunikma markazni iqtisodiy tomondan qo'llab -quvvatlash maqsadida oziq-ovqat to'lovlari uchun	1,23	Romitan tuman hokimligi

13	Tumanda o'tkazilgan tadbirlar xarajatlari uchun	98,7	Romitan tuman hokimligi
14	Majburiy ijro byurosining da’vo arizasiga asosan tumanlararo sudining qaroriga ijrosini ta’minlash uchun	80,0	Romitan tuman hokimligi
15	Tuman hokimligi ishchi-texnik xodimlariga (qorovullariga) uch oylik ustama to'lash uchun	11,3	Romitan tuman hokimligi
x	**Жами**	**1 918,0**	x